



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI.....	267
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQISHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	278
Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti	
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	283
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH.....	289
Bozorova Madina Raxmat qizi	
IMPROVING SERVICE QUALITY MONITORING IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	294
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	299
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	



O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	304
Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	311
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI OSHIRISHDA AKT RIVOJLANISHINING O'RNI.....	315
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	322
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	326
Abdullo Sohibov	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH	331
Davronov Sanjar Ziyotovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	336
Ashrapova Noilaxon Niyazxanovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	340
Ochilov Baxtiyor Muminjonovich	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING.....	346
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin ugli	
SIRKULYAR IQTISODIYOTGA O'TISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	351
Astanakulov Olim Tashtemirovich	
Muxammad Id Balbaa (Muhammad Eid Balbaa)	
Habibe Elif Kutlugun (Habibe Elif Kutlugun)	



SIRKULAR IQTISODIYOTGA O'TISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Astanakulov Olim Tashtemirovich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Islom iqtisodiyoti va moliyasi" kafedrası professorı, DSc,
ORCID: 0000-0002-0536-1214

Muxammad Id Balbaa (Muhammad Eid Balbaa)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar" kafedrası dotsenti, DSc
ORCID: 0000-0002-9924-777X

Habibe Elif Kutlugun (Habibe Elif Kutlugun)

Central Asian University,
Biznes maktabi dotsenti, PhD
ORCID: 0000-0003-0676-6536

Annotatsiya: Mazkur maqolada sirkulyar iqtisodiyotning O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqotda an'anaviy chiziqli iqtisodiy modeldan regenerativ sirkulyar modelga o'tishning dolzarbligi, global tendensiyalar va O'zbekistondagi mavjud muammolar qiyosiy o'rganildi. Xususan, qishloq xo'jaligi va chiqindilarni boshqarish sektorlarida resurslar samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik istiqbollari ochib berildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy samaradorligi va ularni amaliyotga tatbiq etishdagi to'siqlar tanqidiy tahlil qilindi. Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish uchun "Yashil bank" tizimini joriy etish, "Sirkulyar fond"ni tashkil qilish hamda aholining ekologik savodxonligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sirkulyar iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, resurs samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, yashil iqtisodiyot, qo'shimcha qiymat zanjiri, institutsional islohotlar, qayta ishlash, yashil moliyalashtirish, ekologik iz.

Abstract: This article analyzes the role and significance of the circular economy in the economic development of Uzbekistan. The research comparatively studies the relevance of transitioning from the traditional linear economic model to a regenerative circular model, global trends, and existing challenges in Uzbekistan. In particular, it highlights the economic and environmental prospects of increasing resource efficiency in the agriculture and waste management sectors. The economic efficiency of ongoing reforms and the barriers to their implementation are critically analyzed. Scientifically grounded proposals and recommendations have been developed to promote the circular economy, including the introduction of a "Green Bank" system, the establishment of a "Circular Fund", and increasing public environmental awareness.

Keywords: circular economy, sustainable development, resource efficiency, waste management, green economy, value chain, institutional reforms, recycling, green financing, ecological footprint.

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение циркулярной экономики в экономическом развитии Узбекистана. В исследовании проводится сравнительный анализ актуальности перехода от традиционной линейной экономической модели к регенеративной циркулярной модели, а также рассматриваются глобальные тенденции и существующие проблемы в Узбекистане. В частности, раскрываются экономические и экологические перспективы повышения эффективности использования ресурсов в секторах сельского хозяйства и управления отходами. Проведен критический анализ экономической эффективности проводимых реформ и препятствий на пути их реализации. Разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по развитию циркулярной экономики, включая внедрение системы "зеленого банка", создание "циркулярного фонда" и повышение экологической грамотности населения.

Ключевые слова: циркулярная экономика, устойчивое развитие, эффективность использования ресурсов, управление отходами, "зеленая" экономика, цепочка создания стоимости, институциональные реформы, переработка, «зеленое» финансирование, экологический след.



KIRISH

Bugungi kunda global iqtisodiy tizim an'anaviy chiziqli modeldan voz kechish va barqaror rivojlanishning yangi paradigmasi sirkulyar iqtisodiyotga o'tish davrini boshdan kechirmoqda. Sirkulyar iqtisodiyot – bu resurslardan foydalanish samaradorligini maksimal darajaga ko'tarish va chiqindilarni iqtisodiy tizimdan chiqarib tashlashni maqsad qilgan regenerativ yondashuvdir [13]. Ushbu modelning dolzarbligi tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolarning keskinlashuvi bilan izohlanadi. An'anaviy "ol-ishlat-tashla" modeli nafaqat ekologik zarar keltirmoqda, balki iqtisodiy jihatdan ham resurslarning behuda sarflanishiga olib kelmoqda [1; 16]. Shuni ta'kidlash joizki, global miqyosda mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish, shu jumladan oziq-ovqat sektori jahon issiqxona gazlari emissiyasining qariyb yarmi uchun javobgardir, shuning uchun sirkulyar yondashuvga o'tish iqtisodiy o'sishni ekologik degradatsiyadan ajratishning yagona samarali strategiyasi hisoblanadi.

Sirkulyar iqtisodiyot mahsulotning hayotiy siklik davrini uzaytirish, qayta foydalanish, ta'mirlash va ikkilamchi xom ashyo sifatida qayta ishlash tamoyillariga tayanadi [12]. Bu jarayonda "chiqindi" tushunchasi o'z ahamiyatini yo'qotadi; u yangi ishlab chiqarish zanjiri uchun qimmatli resurs sifatida ko'riladi [9]. Texnologik innovatsiyalar va raqamli vositalarning joriy etilishi resurslarni boshqarishda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda va iqtisodiy o'sishni tabiiy boyliklarni sarflashdan ajratishga xizmat qilmoqda [7, 15].

O'zbekiston Respublikasi ham global "yashil" tendensiyalardan chetda qolmagan holda, iqtisodiyotni sirkulyar tamoyillar asosida isloh qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O'zbekiston, sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning dastlabki bosqichlarida bo'lib, aksariyat sirkulyar indikatorlar bo'yicha past ko'rsatkichlarni qayd etmoqda. Shu bois, resurslar samaradorligini oshirish, chiqindilar bilan ishlash infratuzilmasini yaratish va sohaga oid ma'lumotlar bo'shlig'ini to'ldirish mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylangan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2025 yildagi "Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-56-son¹ Farmoni sohadagi institutsional o'zgarishlarning muhim poydevori bo'ldi [22]. Mazkur hujjat chiqindilarni nafaqat yo'q qilish, balki ularni qayta ishlash sohasini tizimlashtirish va kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi sektorini sirkulyarlashtirish (masalan, tomchilatib sug'orish, chiqindilardan biogaz olish va qayta ishlash) O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki iqlim o'zgarishlariga nisbatan chidamlilikni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning amaliy bosqichi sifatida xizmat qilmoqda. Bu strategiya nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiyotda yangi qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim istiqbollarni ochmoqda [10; 3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi jahon ilmiy hamjamiyatida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning eng istiqbolli modeli sifatida e'tirof etilsa-da, uni amaliyotga joriy etish masalalarida olimlar o'rtasida muayyan ilmiy bahs va turlicha yondashuvlar mavjud.

Bir guruh tadqiqotchilar sirkulyar modelga o'tishda eng katta to'siq sifatida kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy risklarini ko'rsatadilar. Xususan, de la Kuesta-Gonsales va Morales-Garsiya fikricha, an'anaviy moliyalashtirish usullari sirkulyar loyihalar uchun samarasiz bo'lib, maxsus "sirkulyar moliyalashtirish" mexanizmlarini talab etadi [5]. Kapozza va boshqalar esa bu fikrni rivojlantirib, logistika va infratuzilma xarajatlarining yuqoriligi sirkulyar ta'minot zanjirlarini shakllantirishda asosiy xavf ekanligini ta'kidlaydilar [4]. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida ham tadbirkorlik subyektlari uchun faqat imtiyozli kreditlar berish kifoya emas. Kapozzaning fikrlariga qo'shilgan holda, mamlakatimizda logistika xarajatlarini optimallashtirishdan turib, chiqindilarni qayta ishlash tizimini iqtisodiy jihatdan foydali sohaga aylantirib bo'lmaydi. Buning uchun davlat xususiy sheriklik asosida yashil moliyaviy instrumentlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar, xususan "raqamli egizaklar" sirkulyar iqtisodiyotning katalizatori sifatida talqin etiladi. Farid va boshqalar to'qimachilik sanoati misolida raqamli egizaklar resurslar oqimini boshqarishda yuqori samara berishini isbotlagan bo'lsa [6], Kumar va boshqalar mahsulotning butun hayotiy siklini monitoring qilishda bu texnologiyaning muhimligini ta'kidlaydilar [11]. Biroq, Xak va boshqalar qishloq xo'jaligi sektorida chiqindilarni qayta ishlashda texnologiyadan ko'ra ko'proq infratuzilmaga va boshqaruv tizimiga e'tibor qaratish zarurligini ilgari suradilar [8]. O'zbekistonda joriy qilish nuqtayi nazaridan, biz Faridning raqamlashtirish bo'yicha yondashuvini qo'llab-quvvatlaymiz, ammo uni Xakning infratuzilmaviy qarashlari bilan to'ldirish lozim deb hisoblaymiz. Mamlakatimiz yengil sanoati va qishloq xo'jaligida raqamli monitoring tizimlarini o'rnatishdan

1 <https://lex.uz/docs/-7445858>



oldin, xom ashyoni saralash va qayta ishlash bo'yicha bazaviy texnologik klasterlarni modernizatsiya qilish birlamchi vazifa hisoblanadi.

Uilts va Yang sirkulyar iqtisodiyotga o'tishni nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va madaniy transformatsiya sifatida baholaydilar [19; 21]. Ularning fikricha, iste'molchilarning xulq-atvorini o'zgartirmasdan va jamiyatni safarbar qilmasdan turib, har qanday siyosiy islohot muvaffaqiyatsizlikka mahkumdir. Kumavat va boshqalar esa plastik chiqindilarni boshqarishda aynan qonunchilik va jamoatchilik o'rtasidagi nomutanosiblik asosiy muammo ekanligini qayd etadilar [11]. Uilts ta'kidlaganidek, aholining ekologik madaniyatini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari (masalan, saralangan chiqindi uchun tarif imtiyozlari) bilan uyg'unlashtirish zarur [19].

Jahon tajribasidagi ilmiy yondashuvlarning xilma-xilligi sirkulyar iqtisodiyotning murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ushbu modelni joriy etishda faqatgina xorijiy tajribani ko'chirish emas, balki milliy iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlarini hisobga olgan holda moliyaviy, texnologik va institutsional yondashuvlarni integratsiya qilish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv hamda qiyosiy va mantiqiy tahlil usullari tashkil etadi. Ish jarayonida sirkulyar iqtisodiyot sohasidagi zamonaviy konsepsiyalar va xalqaro tajribani o'rganish maqsadida Jahon banki (The World Bank), Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) hisobotlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi hamda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining rasmiy ko'rsatkichlari, shuningdek, sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ikkilamchi ma'lumotlar tanqidiy tahlil qilindi. Shu bilan birga, chiqindilarni boshqarish va resurslar samaradorligi bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yevropa Ittifoqining ilg'or tajribasi qiyosiy tahlil etildi. Tadqiqotda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanib, global miqyosdagi sirkulyar tendensiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri o'rganildi va mahalliy sharoitda ularni amalga oshirish imkoniyatlari bo'yicha mantiqiy xulosalar shakllantirildi.

Shuningdek, tadqiqotda iqtisodiy o'sishni ekologik yuklamadan ajratish konsepsiyasi asosida resurs tejamkorligining dinamik o'zgarishlari tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi xalqaro metodologiyalarga muvofiqligi va rasmiy statistik manbalarga tayanganligi bilan asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy sharoitda chiziqli modeldan voz kechish faqatgina xohish emas, balki murakkab texnologik jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahsulotning hayotiy siklini boshqarishda raqamli texnologiyalarsiz (Industry 4.0) samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Farid va boshqalar ta'kidlaganidek, ishlab chiqarish jarayonining virtual nusxasini yaratish resurslar sarfini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi [6]. Masalan, to'qimachilik sanoatida mato chiqindilarini 15–20%ga kamaytirish aynan loyihalash bosqichidagi raqamli modellar hisobiga amalga oshadi.

Narsalar internetida (IoT) mahsulotlarga o'rnatilgan sensorlar ularning qachon ta'mirga muhtojligi yoki qayta ishlashga tayyorligi haqida ma'lumot beradi [11]. Bu esa "mahsulot xizmat sifatida" modelini rivojlantiradi.

Sirkulyar iqtisodiyotni joriy etishda turli tarmoqlar o'rtasida uslubiy ixtiloflar mavjud. Xak va boshqalar qishloq xo'jaligi chiqindilarini "qadriyatga aylantirish" konsepsiyasini ilgari suradilar. Ularning fikricha, anaerob hazm qilish va piroliz texnologiyalari orqali biomassadan energiya olish mumkin [8]. Bradley va boshqalar mahsulotni qayta tiklash xarajatlari modelini taklif etadi. Unga ko'ra, agar qayta tiklash xarajati yangi mahsulot tannarxining 60%idan oshsa, sirkulyarlik iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi [2]. Bizning fikrimizcha, O'zbekistonning agrar-sanoat mamlakati ekanligini inobatga olsak, Xakning yondashuvi ko'proq mos keladi. Mamlakatimizda paxta va meva-sabzavot chiqindilaridan bioo'g'itlar yoki issiqlik energiyasi olish iqtisodiy jihatdan eng yuqori samara beruvchi yo'nalishdir (1-jadval).

1-jadval.

Sirkulyar iqtisodiyotning tarmoqlardagi ta'sir darajasi [17; 18]

Tarmoq	Asosiy muammo	Sirkulyar yechim	Kutilayotgan samara
Qishloq xo'jaligi	Organik chiqindilar	Kompostlash va biogaz	Tuproq unumdorligi (+12%)
To'qimachilik	Suv va kimyoviy ifloslanish	Suvni yopiq siklda qayta ishlash	Resurs tejash (30-40%)



Qurilish	Qurilish chiqindilari	Ikkilamchi xom ashyodan foydalanish	Tannarx pasayishi (15%)
Plastmassa	Uzoq muddatli parchalanish	Bio-parchalanadigan polimerlar	Ekologik yukning kamayishi

Markaziy Osiyo mintaqasida sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayoni hozirgi kunda dastlabki bosqichda bo'lsa-da, u barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sishni ekologik degradatsiyadan ajratishning yagona samarali yo'li sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon bankining "Circular Economy as an Opportunity for Central Asia" hisoboti tahlillari shuni ko'rsatadiki, mintaqa mamlakatlarida resurs samaradorligi global o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha past. Xususan, maishiy qattiq chiqindilarni qayta ishlash darajasi O'zbekistonda 10 foizdan kamni tashkil etadi, holbuki bu ko'rsatkich Yevropa Ittifoqi davlatlarida o'rtacha 50 foiz atrofidadir [20]. Bu farq resurslarni boshqarish infratuzilmasini tubdan isloh qilish va ma'lumotlar tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

An'anaviy "ol-ishlat-tashla" (chiziqli) tizimidan farqli o'laroq, sirkulyar modelda chiqindilar ishlab chiqarish siklining oxiri emas, balki yangi resurslar manbasi sifatida ishlab chiqarish zanjirining ajralmas qismiga aylanadi. Bu jarayon resurslardan foydalanish samaradorligini maksimal darajaga ko'tarish va ekologik izni kamaytirishni maqsad qiladi [13].

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi sektori muhim o'rin egallaydi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud infratuzilma imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Masalan, mavjud 1500 ta sovutkichli omborxonalar hosilning atigi 4,5 foizini saqlashga qodir, bu esa tez buziladigan mahsulotlarning 45 foizgacha yo'qotilishiga olib kelmoqda [20] (World Bank, 2024). Ushbu yo'qotishlar nafaqat oziq-ovqat xavfsizligiga, balki resurslardan samarasiz foydalanishga ham bog'liq. Sirkulyar yondashuvga o'tish orqali bu yo'qotishlarni kamaytirish va qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish mumkin (2-jadval).

2 jadval

Markaziy Osiyoda sirkulyar iqtisodiyotning samaradorligi prognozi [20]

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston (qishloq xo'jaligi)	Qozog'iston (qurilish sektori)	Mintaqaviy umumiy ta'sir
Ko'zda tutilgan investitsiya (mln \$)	860	1,200	2,060+
Yangi ish o'rinlari (ming nafar)	46	55	100+
Issiqxona gazlarini kamaytirish (%)	34	28	30+
Resurs tejamkorligi	0,5 mlrd litr suv	21 mln. tonna xom ashyo	Yuqori samara

Mugge ta'kidlaganidek, inson omili va xulq-atvori o'zgarimas ekan, eng zamonaviy texnologiya ham kutilgan natijani bermaydi [14]. Shu bois, PF-174 ijrosida aholini moddiy rag'batlantirish tizimini kuchaytirish zarur.

Kelajakda sirkulyar iqtisodiyotga o'tish uchun "Yashil bank" tizimini rivojlantirish lozim. De la Kuesta-Gonsales fikricha, an'anaviy banklar sirkulyar loyihalarni murakkabligi sababli "yuqori riskli" deb hisoblaydi va kredit ajratishda ehtiyotkorlik qiladi [5]. Bizning taklifimizga ko'ra, O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash loyihalari uchun maxsus "Sirkulyar fond" tashkil etilishi va uning doirasida undiriladigan ekologik kompensatsiya to'lovlari yo'naltirilishi lozim. Bu esa sohaning o'zini o'zi moliyalashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sirkulyar iqtisodiyotga o'tishdagi muhim to'siq — bu "ma'lumotlar bo'shlig'i" hisoblanadi. Hozirgi kunda mintaqada sirkulyar iqtisodiyotga oid ko'rsatkichlar yetarlicha yig'ilmagan yoki xalqaro standartlarga mos kelmaydi [20]. Shu sababli, Yevrostat metodologiyasi kabi xalqaro tajribalarni qo'llash va mintaqaviy ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish tadqiqotlarning ishonchliligini ta'minlaydi.

Ushbu tahlillar shuni isbotlaydiki, sirkulyar iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni yechish, balki yangi qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim vositadir [10]. Xususan, qishloq xo'jaligini sirkulyarlashtirish (masalan, tomchilatib sug'orish texnologiyalari, bio'g'itlar ishlab chiqarish) O'zbekiston uchun iqlim o'zgarishlariga nisbatan chidamlilikni kuchaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o'tish — bu shunchaki ekologik tashabbus emas, balki mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga qaratilgan strategik zaruratdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, chiziqli iqtisodiyotdan voz kechish va resurslar samaradorligini oshirish orqali yangi qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish hamda iqtisodiyotni tashqi xom ashyo bozorlariga qaramlikdan kamaytirish imkoni mavjud.



“Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmon kabi institutsional islohotlar bu yo’lda muhim poydevor bo’lib xizmat qilmoqda, biroq ularning muvaffaqiyati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ongi va xususiy sektorning faol ishtiroki bilan chambarchas bog’liqdir.

Sirkulyar iqtisodiyotga o’tish bir kunlik jarayon emas, balki uzoq muddatli institutsional va madaniy transformatsiyani talab qiladi. Davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanadigan “yashil” moliyalashtirish instrumentlari, xususiy sektorning innovatsion yondashuvlari va ilmiy asoslangan strategiyalar uyg’unlashgandagina mazkur model milliy iqtisodiyot uchun kutilgan ijobiy natijalarni berishi mumkin.

Tadqiqot asosida sirkulyar iqtisodiyotga o’tishni jadallashtirish bo’yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- an’anaviy banklar tomonidan sirkulyar loyihalarga nisbatan yuqori riskli yondashuvni kamaytirish maqsadida, undiriladigan ekologik to’lovlarni jamlovchi va faqat qayta ishlash loyihalarini imtiyozli moliyalashtiruvchi maxsus “Sirkulyar fond”ni tashkil etish zarur;

- texnologik innovatsiyalar samaradorligini oshirish uchun aholini chiqindilarni saralashga rag’batlantiruvchi moddiy bonus tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Inson omilini inobatga olmasdan o’tkazilgan har qanday islohot kutilgan ekologik samarani bermaydi;

- kelajakdagi tadqiqotlar sirkulyar iqtisodiyot indikatorlarini milliy hisoblar tizimiga integratsiya qilishga qaratilishi lozim. Xalqaro tajriba asosida shaffof va solishtirma ma’lumotlar bazasini yaratish davlat boshqaruvida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi;

- sanoat chiqindilarini ikkilamchi xom ashyoga aylantiruvchi innovatsion loyihalarni qo’llab-quvvatlash uchun ilmiy-tadqiqot markazlari va ishlab chiqaruvchi korxonalar o’rtasidagi “texnologik transfer” platformalarini kengaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Astanakulov, O. (2020), National projects and government programmes: Functional algorithm for evaluating and modelling using the Data Science methodology. *Economic Annals-XXI*, 183(5-6), 51-59.

2. Bradley, R., Jawahir, I. S., Badurdeen, F., & Rouch, K. (2018). A total life cycle cost model (TLCCM) for the circular economy and its application to post-recovery resource allocation. *Resources, Conservation and Recycling*, 135, 141-149.

3. Bukhari, S.D. (2024). Circular economy through smart and sustainable supply chain management. In *Strategies for Environmentally Responsible Supply Chain and Production Management* (pp. 20-38). IGI Global Scientific Publishing.

4. Capozza, C., Mokiy, A., Zvarych, I., Ilyash, O., & Vankevych, I. (2024). Financial challenges and threats of circular economy logistics. In *Systemic risk and complex networks in modern financial systems* (pp. 359-382). Cham: Springer Nature Switzerland.

5. de la Cuesta-González, M., & Morales-García, M. (2022). Does finance as usual work for circular economy transition? A financiers and SMEs qualitative approach. *Journal of Environmental Planning and Management*, 65(13), 2468-2489.

6. Fareed, A.G., Petrillo, A., & De Felice, F. (2026). A digital twin framework for circular economy and operational excellence in textile manufacturing. *The International Journal of Advanced Manufacturing Technology*, 1-21.

7. Haashni, S., Manjunath, T.C., Meera, K.L., & Arun, M.R. (2026). Technology-Enabled Circular Economy. In *Prioritizing Environmental Sustainability in Local Industrial Systems* (pp. 99-126). IGI Global Scientific Publishing.

8. Haque, F., Fan, C., & Lee, Y.-Y. (2023). From waste to value: Addressing the relevance of waste recovery to agricultural sector in line with circular economy. *Journal of Cleaner Production*, 415, 137873.

9. Jadoni, R., & Goyal, M. (2025). Closed Loop System and Circular Economy: A Road for Sustainability. In *International Conference on Modern Practices and Trends in Expert Applications and Security* (pp. 377-394). Singapore: Springer Nature Singapore.

10. Khatun, B., Narayan, S., & Wijerathna, D.D.M.I.L. (2025). Circular Economy Benefits: Analyzing Economic Advantages and Environmental Sustainability. In *Sustainable Urban Future: Embracing Circular Economy in Waste Management* (pp. 73-92). Singapore: Springer Nature Singapore.

11. Kumar, A., Gupta, D., & Mahajan, N. (2025). Sustainability Through Digital Twins: A Circular Economy Approach to Product Lifecycle Management. In *2025 12th International Conference on Reliability, Infocom Technologies and Optimization (Trends and Future Directions) (ICRITO)*(pp. 1-6). IEEE.



12. Kumar, A., Singh, R., Sagar, S., & Bharti, D. (2026). Advancing Circular Economy Practices in Manufacturing: Innovations and Applications in Sustainable Production. In *Hybrid Materials and Advanced Manufacturing* (pp. 210-221). CRC Press.
13. Longkumer M. A Review On Circular Economy As A Tool For Sustainable Development. *Int J Drug Deliv Technol.* 2026;16(8s): 799-803; DOI: 10.25258/ijddt.16.8s.90.
14. Mugge, R. (2018). Product design and consumer behaviour in a circular economy. *Sustainability*, 10(10), 3704.
15. Olim, A., Balbaa, M. E., Mukhabbatkhon, B., Batirova, N., & Dadabaev, U. (2024). Enhancing Housing Finance for Socio-Economic Stability in Uzbekistan. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 14(3), 140–148. <https://doi.org/10.32479/ijefi.16269>
16. Osvaldová, M., & Potkány, M. (2022). Economic Principles and Possibilities of Using Recycled Material Based on Wood–Plastic–Rubber. In *15th International Scientific Conference WoodEMA* (pp. 299-306).
17. Rautrao, R.R., Nille, N.S., Mishra, M.V., Sivasamy, S., Gupta, H., & Whig, A. (2026). Sustainable waste management and circular economy. In *Sustainable Solutions for Environmental Pollution* (pp. 565-587). Elsevier.
18. Shabanpour, H., Lieske, S. N., Dargusch, P., Wadley, D., & Saen, R. F. (2025). Advancing circular economy assessments for sustainability benchmarking in resource and manufacturing supply chains: A scalable dynamic network framework. *Journal of Environmental Management*, 393, 127180.
19. Wilts, H. (2026). Ecological turn with intelligence: the transformation toward a circular economy. In *Ecological Turn with Intelligence* (pp. 145-159).
- 20 World Bank. (2024). Circular economy as an opportunity for Central Asia: Summary report. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/circular-economy-central-asia>
21. Yang, H. (2016). Design for transition to a circular economy. In *International Conference on Cross-Cultural Design* (pp. 800-807). Cham: Springer International Publishing.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2025 yildagi "Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-56-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/7445858>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>